

O'ZBEKISTON-YAPONIYA MUNOSABATLARI

Musajonova Madina Shuhratjon qizi

(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti 303-guruh talabasi)

Abdullayev Begzodbek Xusniddin o'g'li

(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti o'qituvchisi)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonning musatqillikka erishganidan to hozirgi kungacha Yaponiya bilan o'rnatilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy aloqalari, tashqi savdo aylanmalari va ularning manfaatli tomonlari aks etgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Yaponiya, Sulilo Edammura, strategik sheriklik, rasmiy tashrif, eksport, davlat tashrifi, PQ-4119-sonli, Shinzo Abe, J. Koidzumi, siyosiy hujjat, qorametallar, mashinalar.

Abstract: This article reflects the political, economic, social, cultural relations, foreign trade flows and their interests established with Japan from the time of independence of Uzbekistan to the present day.

Key words: Uzbekistan, Japan, Sulilo Edammura, strategic partnership, official visit, export, state visit, PQ-4119, Shinzo Abe, J. Koizumi, political document, black metals, cars.

Yaponiya dunyo davlatlari ichida birinchilardan bo'lib O'zbekiston mustaqilligini tan olgan davlatlardan biri. 1992-yilning 28-avgustida Yaponiyaning O'zbekistonda faoliyat boshlagan birinchi elchisi Sulilo Edammura O'zbekiston Prezidenti I. Karimovga ishonch yorlig'ini topshirdi. Har ikki davlat o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik yildan-yilga kengayib bordi. 1994-yilning 16—19-may kunlari O'zbekiston rahbarining Yaponiyaga rasmiy tashrifi bu ikki davlat aloqalarini yanada rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Yaponiya — O'zbekiston munosabatlari rivojining XXI asr boshlarida yangi bosqichga ko'tarilishida I. Karimovning 2002-yilning 28—31-iyul kunlarida rasmiy tashrif bilan Yaponiyada bo'lishi katta ahamiyatga egadir. Bu tashrif davomida I. Karimov va Yaponiya Bosh vaziri J. Koidzumi muhim siyosiy hujjatni — «Do'stlik, strategik sheriklik va xalqaro hamkorlik to'g'risida»gi bayonotni imzoladilar. Bundan tashqari «O'zaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida», «O'zbekistondagi islohotlarni qo'llab quvvatlash to'g'risida» va yana boshqa qator hujjatlar imzolandi. Bu hujjatlar Yaponiya — O'zbekiston aloqalarini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi. Yaponiya O'zbekiston bilan har tomonlama yaqin hamkorlik qilib kelayotgan davlatlardan biri. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil fevralda Yaponiyaga qilgan navbatdagi davlat tashrifi davomida ham ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, turli sohalarga investitsiyalar jalb qilish va diplomatic aloqalarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun xizmat qiluvchi qator

shartnomalar tuzishga erishildi. Bundan tashqari, 2015-yilning oktabr oyida Yaponiya bosh vaziri Sindzo Abening O‘zbekistonga tashrifi doirasida umumiy qiymati 9mlrd. Dollarni tashkil qiladigan loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yildan O‘zbekistonning boshqa davlatlar bilan diplomatic munosabatlarida yangi davr boshlandi. Jumladan, 2019-yilning dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga davlat tashrifi bo‘lib o‘tdi.

Jumladan, 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi va Yaponiyaning tashqi savdo aylanmasi miqdori \$207,2mln.ni tashkil qildi va eksport – \$7,6mln, import esa – \$199,6mln ni tashkil qildi . Bunda eksport quyidagi sohalarda yuqori ulushga ega bo‘ldi: Xizmatlar – \$2,5mln; Kimyoviy mahsulotlar – \$1,7mln; Mashina va asbob-uskunalar – \$1,7mln. Import esa: Qorametallar – \$189,2mln; Oziq-ovqat mahsulotlari – \$6,1mln; Mashina va asbob-uskunalar – \$964,1mln” ushbu sohalarda yuqori bo‘ldi.

Ikki mamlakat o‘rtasida madaniy aloqalar ham keng rivojlanib kelmoqda. Xususan, Toshkentdagi Milliy nafis san‘at va musiqa universiteti bilan hamkorlikda Toshkentda xalqaro madaniyat karvon saroyining ishga tushirilishi, jahon tinchlik qo‘ng‘irog‘ining barpo etilishi Yaponiyadagi bir qancha ijtimoiy tashkilotlar ko‘magida Osaka “FUKUSHIMA” MAIBASHI shaharlarida doimiy faoliyat olib boruvchi O‘zbekiston madaniyat uylarining ochilishi bunga yorqin misol. Bundan tashqari Yaponiya va O‘zbekistonda ko‘plab ko‘rgazma, taqdimot, kino festivallar, milliy musiqa va raqs guruhlarining konsertlari, shuningdek 1996-yildan buyon O‘zbekistonda Yaponiya kunlari muntazam o‘tkazilib kelinmoqda.

Yaponiya bizning strategik hamkorimizdir va Yaponiya bilan mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlari hamda infratuzilmalarni modernizatsiya qilish bo‘yicha ko‘pishlar qilinib kelinmoqda. Jahondagi ko‘plab rivojlanayotgan davlatlar Yaponiya iqtisodiyoti tajribasini, uning bosib o‘tgan yo‘llarini tahlil qilgan holda o‘z mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishida qo‘llayolgan. Jumladan, Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur, Indoneziya, Filippin, Tayvan kabi mamlakatlarda olib borilgan iqtisodiy islohotlarda aynan Yaponiya tajribasining ko‘plab jihatlaridan unumli foydalanilgan .Shuning uchun ham Yaponiya iqtisodiyotini hamda rivojlanish modelini tahlil qilgan holda uning ba’zi bir jihatlarini O‘zbekistonda ham qo‘llash manfaatli bo‘ladi. Shu tufayli ikki mamlakat o‘rtasida o‘zaro manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yurtimiz hozirgi kunda nafaqat Yaponiya balki ko‘pgina xorijiy mamlakatlardagi tashkilotlar bilan ta’lim tizimi bo‘yicha hamkorlik aloqalarini o‘natish borasida ko‘pgina ishlarni amalga oshirib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4119-sonli qarori asosida 2019-yil Xalqaro aloqalar bo‘limi tashkil etilgan. Shu kundan boshlab Janubiy Korea,

Finlandiya, Angliya, AQSH, Polsha, Turkmanston va Fransiya kabi 20 tadan ortiq xorijiy davlatlarning elchixonalaridan hamkorlik qilish bo'yicha takliflar olindi va 40 tadan ortiq rasmiy uchrashuvlar o'tkazildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lex.uz
2. Anarina N.G. Sakralnaya telesnost yaponskoy xudojestven noyveshi// Vesh v yaponskoy kulture.M.:Vost.lit.,2003,s.185-201.
3. Grigoreva T.P. Ponimanie iskusstva v Yaponii// Grigoreva T.P. Dvijenie kraasoti: R azmishleniya o yaponskoy kulture.M.:Vost.lit.,2005,s.180-192.
4. Тешабаева, О. Н., Суфиев, Р., & ўғли Хасанов, Ж. А. (2022). Мамлакатимиз худудларида инвестицион жозибадорликни ривожлантириш бўйича стратегик дастурлар. *Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar*, 2(17), 245-251.
5. Тешабаева, О. Н., & Суфиев, Р. (2022). Оценка путей и эффективности привлечения инвестиций в реальный сектор экономики. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot*, 1(17), 196-200